


“Involta” Ilmiy Jurnali

**Vebsayt:** https://involta.uz/

# “PSIXODIOGNOSTIK TESTI” SO’ROVNOMASINING O’ZBEK MAHALLIY MUHITIDA ISHONCHLILIK VA VALIDLIK MEZONLARINI TAMINLANISHI

**Magdiyeva Zamira Yo’ldoshxanovna**

O’zMU magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada “Psixodiognostik test” so’rovnomasining o’zbek mahalliy muhitida standartlashtirish yuzasidan sten o’lchovi, korelatsion bog’liqlikni aniqlashda Kettell 16F, Ayzenk EPQ ekstroversiya-introversiya metodikalari bilan Pirson mezoni asosida tahlili natijalar hamda emperik validlikni aniqlash ushun Ko’p omilli (FPI) metodikasi bilan o’zaro shkalalarni korelatsiyasi natijalari taqdim etildi.

**Kalit so’zlar:** Standartlashtirish, sten-stayn, retest,Kettell 16F, Ayzenk EPQ ekstroversiya-introversiya, Pirson,Spirmen mezoni, emperik validlik.

**Аннотация:** Статье приведены результаты анализа опросника «Психодиагностический тест» на стандартизацию в узбекской локальной среде на основе экстраверсионно-интроверсионных методов Кеттелла 16F, Айзенка EPQ при установлении корреляционной зависимости и определении эмпирической валидности.

**Ключевые слова**: стандартизация, стенд-ап, повторное тестирование, Кеттелл 16F, экстраверсия-интроверсия Eisenk EPQ, Пирсон, Спирмена, эмпирическая

валидность.

Psixodiognostik so'rovnolalar obektiv testlar qatorida tadqiqodlarda foydalanish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Biz o'z tadqiqodlarimizda V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiylarning "psixologik testi" so'rovnomasining o'zbek muhutiga moslashtirilishi masalasi yuzasidan bir necha tadqiqodlar olib bordik. Ushbu tadqiqodlarimiz bir necha bosqichda amalga oshirildi. Dastlab metodikani o'zbek madaniy-ijtimoiy til meyorlariga amal qilingan holda filologlar tomonidan so'rovnomaning o'zbek tiliga tarjima nushasi tayyorlandi. So'rovnomaning o'zbek tiliga tarjima nusxasi 78 ta o'zbek talabalarida va rus tilidagi so'rovnoma esa, rus 77 ta talabalarida tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalar asosida diskriminativlik koifsenti va diskriminativlik indekslari topildi. Diskriminativlik indeksi natijalariga ko'ra yig'ilgan so'rovnomaning dastlapki shakli shakllantiriladi. Saralangan savollar har bir shkala bo'yicha dastlapki so'rovnoma va kalit shakllantiriladi. Ayni shu natijalar asosida so'rovnomaning birlamchi baholash parametrlari hosil qilinadi. Tadqiqotimizni keyingi ishonchlilik va validlik mezonlarini anialashni quyidgi ketma-ketlikda amalga oshiramiz:

1. Retest ishinchlilikni aniqlash;
2. Shkalalarda ballarni taqsimlanishi stenlash orqali aniqlab olamiz;
3. Korelatsion bog'liqligini aniqlash uchun Kettell 16F, Ayzenk ekstroversiya-introversiya metodikalari bilan Pirson mezoni asosida tahlilni amalga oshiramiz;

Birlamchi baholash psixometriyasidagi eng keng tarqalgan o'zgarishlar standart og'ishlar orqali markazlashtirish va normallashtirishdir. Markazlash - bu o'lchangan xususiyat qiymatlarining chiziqli o'zgarishi, bunda taqsimotning o'rtacha qiymati nolga teng bo'ladi. Normallashtirish tartibi standart qiymatlarga o'tishda empirik ko'rsatkichlarni normal taqsimlash tamoyiliga asoslangan va quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladigan boshqa o'lchov shkalasiga o'tishdan iborat.

1-jadval

Standartlashtirish talabi asosida shkalalarda ballar taqsimlanishi

| № | So'rovnoma shkalalari | Sten | | | | | | | | | | μ | δ | **ball** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | 10 | | | |
| 1 | Nevrotizm | 0-2 | 3-4 | 5-6 | 7-9 | 10-12 | 13-15 | 16-17 | 18-19 | 20-22 | 23-24 | 12,5 | **12** | 24 |
| 2 | Psixotizm | 0-1 | 2-3 | 4-5 | 6-7 | 8-9 | 10 | 11-12 | 13-14 | 15-16 | 17 | 7 | **8,5** | 17 |
| 3 | Dipressiya | 0-1 | 2-3 | 4 | 5-6 | 7 | 8-9 | 10-11 | 12-13 | 14-15 | 16 | 6,61 | **8,11** | 16 |
| 4 | Vijdonlilik | 0-1 | 2 | 3 | 4-5 | 6-7 | 8-9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 9,26 | **6,55** | 13 |
| 5 | Turg'unloshganlik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 3,36 | **5,11** | 10 |
| 6 | Umumiy faollik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8-9 | 10-11 | 12-13 | 7,55 | **6,55** | 13 |
| 7 | Tobelik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 3,6 | **5,35** | 10 |
| 8 | Muloqotchanlik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9-10 | 11-12 | 8,13 | **6,13** | 12 |
| 9 | Estetik jozibadorlik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8-9 | 10-11 | 12-13 | 7 | **6,5** | 13 |
| 10 | Nazokatlilik | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 4,41 | **4,66** | 9 |
| 11 | Psixik beqarorlik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9-10 | 11 | 5 | **5,5** | 11 |
| 12 | Asotsionallik | 0-1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 4 | **5** | 10 |
| 13 | Introversiya | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 3 | **4,5** | 9 |
| 14 | Senzitivlik | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 5,14 | **4,64** | 9 |

Ushbu metodika shkalalariga ko'ra nevrotizm shkalasi quyi-0-4, o'rta-5-15 va yuqori- 16-24, psixologik shkalasi quyi-0-5, o'rta-6-10 va yuqori-11-17 , depressiya shkalasi quyi-0-3, o'rta-4-9 va yuqori-10-16 , vijdonlilik shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-10 va yuqori-11-13 , turg'unlashganlik shkalasi quyi-0-3, o'rta-4-7 va yuqori-8-10, umumiy faollik shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-7 va yuqori- 8-13, tobelik shkalasi quyi-0-3, o'rta-4-6 va yuqori-7-10, muloqotchanlik shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-8 va yuqori-9-12, estetik

taassurotchanlik shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-7 va yuqori- 8-13, nazokatlilik quyi-0-2, o'rta-3-5 va yuqori-6-9 , va yuqori shkalalarida psixik beqarorlik shkalasi quyi-0-3, o'rta-4-7 va yuqori-5-11 , asotsionallik shkalasi quyi-0-3, o'rta-4-7 va yuqori-8-10, introversiya shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-6 va yuqori-7-9, senzitivlik shkalasi quyi-0-2, o'rta-3-6 va yuqori-7-9, ballarni tashkil etdi. So'rovnoma shkalari ushbu psixologik xususiyatlarini o'zbek muhutida diognostika qilishda obektiv vositalar sifatida foydalanish uchun samarali hisoblandi va keyingi tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqot bir necha tahlil asosida amalga oshiriladi. Biz retest ishonchliligini aniqlash uchun 73 nafar talabalar tanlab olindi va tadqiqotlar o'tkazdik. Olti oy oraliq muddatdan so'ng retest uchun qayta test o'tkazildi va quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

**Psixodiognostik testning retest ishinchlilikni aniqlash**

| № | Metodikaning shkalalari | Retest tekshiruv natijalarir |
|---|---|---|
| 1 | Nevrotizm | 0,984** |
| 2 | Psixotizm | 0,526** |
| 3 | Depressiya | 0,875** |
| 4 | Vijdonlilik | 0,845** |
| 5 | Turg'unloshganlik | 0,917** |
| 6 | Umumiy_faollik | 0,879** |
| 7 | To'belik | 0,908** |
| 8 | Muloqandmanlik | 0,883** |
| 9 | Estetiktaassur | 0,752** |
| 10 | Nazokatlilik | 0,909** |
| **Yuqori shkala** | | |
| 11 | Psixikbekaror | 0,802** |
| 12 | Asotsianallik | 0,798** |
| 13 | Introversiya | 0,861** |
| 14 | Senzitivlik | 0,857** |

So'rovnomani retest ishonchlilik qoidasiga ko'ra natijalar, "nevrotizm" shkalasi

p=0,984, “psixotizm” shkalasi p=0,526, “depressiya” shkalasi p=0,875, “vijdonlilik” shkalasi p=0,845, “turg’unloshganlik” shkalasi p=0,917, “umumiy faollik” shkalasi p=0,879, “to’belik” shkalasi p=0,908, “muomalaga kirishimlilik” shkalasi p=0,883, “estetik taassurotchanlik” shkalasi p=0,752, “nazokatlilik” shkalasi p=0,909, “psixik bekarorlik” shkalasi p=0,802, “asotsianallik” shkalasi p=0,798 “introversiya” shkalasi p=0,861, “senzitivlik” shkalasi p=0,857. Olingan natijalar ushbu so’rovnomani moslashtirishning psixometrik talablarini qoniqtiradi.

Korrelatsion bog’liqligini aniqlash uchun Kettell 16F omilli so’rovnomasi, Ayzenk EPQ metodikalari bilan Pirson mezoni asosida tahlilni amalga oshiramiz. Buning uchun biz 63 ta talabalarda tadqiqotni o’tkazdik. Unga ko’ra natijalar quyida 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

**V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiylarning “psixologik testi” so’rovnomasi bilan Kettel 16F, Ayzenk EPQ so’rovnomalari o’rtasidagi korrelatsion bog’liqlik**

| | | **“Psixodiognstik test” shkalalari** | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Nevrotizm | Psixotizm | Depressiya | Vijdonlilik | Muomalaga kirishimlilik | Estetik taassurorchanli | Psixik beqarorlik | Asotsionallik | Introversiya | Senzitivlik |
| **Kettell 16 omilli shkalalari** | Muloqotga moyillik | ,088 | ,177 | -,013 | ,422** | -,111 | ,052 | ,191 | -,008 | ,041 | ,104 |
| | Hissiy barqarorlik beqarorlik | ,035 | ,454** | -,163 | ,506** | ,049 | ,051 | ,166 | -,069 | ,063 | -,043 |
| | Hukmronlikka intilish tobe’lik | ,282* | ,118 | ,175 | ,010 | ,021 | ,309* | ,138 | ,090 | ,011 | ,106 |
| | Ijtimoiy mardlikda-dillik, tortinchoqlik | ,172 | ,133 | ,136 | ,040 | ,272* | ,144 | ,216 | -,028 | -,159 | ,082 |
| | Mustaqillik tobe’lik | -,006 | ,243 | ,094 | ,056 | ,152 | ,150 | -,019 | -,061 | ,014 | ,065 |
| | O‘zini nazorat qilish | ,348** | ,201 | ,312* | ,035 | -,028 | -,079 | ,355** | -,057 | ,010 | ,003 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Qo'zgaluvchanlik zo'riqish bo'shashish | ,412** | ,242 | ,425** | ,098 | ,152 | ,061 | ,400** | -,033 | -,167 | ,022 |
| Ayzenk EPQ | EkstraIntroversiya | ,126 | ,055 | ,139 | ,033 | ,149 | ,142 | ,048 | -,064 | -,275* | ,030 |
| | Neyrotizm | ,434** | ,379** | ,471** | -,056 | -,041 | ,073 | ,380** | ,051 | ,158 | -,036 |
| | Psixotizm | ,103 | ,144 | ,196 | -,119 | ,124 | -,037 | ,171 | -,076 | -,165 | ,102 |
| | Samimiylik | -,066 | ,010 | -,227 | ,494** | ,019 | -,018 | ,057 | -,023 | ,127 | -,002 |

Olingan natijalarga ko'ra, "nevrotizm" shkalasi Kettelning 16F shkalalari "hukmronlikga intilish" p=282; p≤0,05, "o'zini nazorat qilish" p=345; p≤0,01, "qo'zgaluvchanlik zo'riqish bo'shashish" p=412; p≤0,01 va Ayzenkning EPQ so'rovnomasining "nevrotizm" p=434; p≤0,01 shkalalari bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "psixotizm" shkalasi Kettelning 16F shkalalari "hissiy barqarorlik beqarorlik" p=454; p≤0,01 Ayzenkning EPQ so'rovnomasining "nevrotizm" p=471; p≤0,01 bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "depressiya" shkalasi "O'zini nazorat qilish"p=312; p≤0,05, "Qo'zgaluvchanlik zo'riqish bo'shashish" p=425; p≤0,01, "nevrotizm" p=471; p≤0,01 shkalalari bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "vijdonlilik" shkalasi "muloqotga moyillik" p=422; p≤0,01, "hissiy barqarorlik beqarorlik" p=506; p≤0,01" hamda, Ayzenkning EPQ so'rovnomasining "samimiylik" p=494; p≤0,01 shkalalari bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "muomalaga kirishimlilik" shkalasi bilan "ijtimoiy mardlikda-dillik tortinchoqlik" p=272; p≤0,05 bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning"estetik taassurorchanlik" shkalasi "hukmronlikka intilish tobe'lik" p=309; p≤0,05 bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "psixik beqarorlik" shkalasi "O'zini nazorat qilish" p=355; p≤0,01, "qo'zgaluvchanlik zo'riqish bo'shashish" p=400; p≤0,01, hamda, Ayzenkning EPQ so'rovnomasining "nevrotizm" p=380; p≤0,01

shkalasi bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. So'rovnomaning "introversiya" shkalasi hamda, Ayzenkning EPQ so'rovnomasining "ekstroversiya-introversiya" p=275; p≤0,01 shkalasi bilan ijobiy korelatsiya bog'lanish hosil qildi. Emperik validlikni aniqlash ushun Ko'p omilli FPI metodikasi bilan o'zaro solishtirib aniqlab olamiz. So'rovnomani validlashtirish uchun emperik validlik mezonlari olindi. Bunda biz V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiylarning "psixologik testi" so'rovnomasi bilan Ko'p omilli FPI metodikasining shkalalari o'rtasidagi korelatsion munosabat aniqlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiylarning "psixologik testi" so'rovnomasi o'zbek muhutiga moslashtirildi va o'zbek muhutidagi shakli shakllantirildi. Ushbu metodika shkalalariga ko'ra nevrologik, psixologik, depressivlik, vijdonlilik, turg'unlashganlik, umumiy faollik, tobelik, muomilaga kirishimlilik, estetik taassurotchanlik, nazokatlilik va yuqori shkalalarida psixik beqarorlik, asotsionallik, introversiya, senzitivlik hususiyatlarini o'zbek muhutida diognostika qilishda samarali vosita bo'lib hizmat qiladi.

## Faydalanilgan adabiyotlar


1. Анастази А. Психологическое тестирование. В 2-х кн. М., 1982.
2. Прыгин Г.С. Основы психодиагностики: Принципы и ме-тоды. История развития. Основы психометрики: Учебное посо-бие. М.: УМК «Психология», 2003. 198 с.
3. Мелников В.М., Ямполский Л.Т. Введение в эксперименталную психологию личности: Учеб. Пособие для слушателей ИПК преподавателей пед. дисциплин и пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1985. - 319 с
4. Психологическая диагностика: Учебное пособие / Под ред. К.М. Гуревича, Е.М. Борисовой. 2-е изд., испр. — М.: Изд-во УРАО, 2000. — 304 с.
5. http://psychol.ras.ru
6. http://Student.ru
7. http://Koob.ru